

**O'ZBEK TILI MASHG'ULOTLARIDAN SAVOL
O'QUV TOPSHIRIG'IDAN FOYDALANISH**

*Umarova Nigora Zaynitdinovna, Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti kafedra mudiri*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УЧЕБНОГО ЗАДАНИЯ
ВОПРОС ИЗ УРОКОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

*Умарова Нигора Зайнитдиновна, заведующая кафедрой
Ташкентского государственного технического
университета имени Ислама Каримова*

**EFFECTIVE USE OF TYPES OF EXERCISES
IN UZBEK LANGUAGE LESSONS**

*Umarova Nigora Zaynitdinovna, Head of the Department of
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov*



<https://orcid.org/0009-0003-1819-8393>

umarova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimida o'zbek tili o'qitishda mashq turlaridan samarali foydalanish, texnika yo'nalishi talablariga o'zbek tili bo'yicha belgilangan ko'nikma va malakalar hamda ularni shakllantirishga o'quv topshiriqlargadoir taklif-mulohazlar bayon qilingan. Shuningdek, mashqlar tavsiflangan, tasnif etilgan hamda yangi darslik va qo'llanmalarida grammatik va nutqiy mashqlar qanday bo'lishi haqida taklif hamda namunalar berilgan.

Kalit so'zlar: mashq, mashq turlari, grammatik mashqlar, oliy ta'lim, nutqiy ko'nikmalar, o'zbek tili, malaka, kompetentsiya, DTS, o'quv topshiriqlari, fonetik mashqlar, metodika, takomillashtirish, darslik, qo'llanma, zamonaviy o'quv topshiriqlari, leksik mashqlar, o'qib tushunish mashqlari.

Аннотация: В статье описывается эффективное использование видов упражнений при преподавании узбекского языка в системе высшего образования, навыки и квалификации, установленные по узбекскому языку в требованиях технического направления, а также учебные задания для их формирования, и предложения-соображения. Упражнения также описаны, классифицированы, а новые учебники и руководства содержат рекомендации и образцы того, на что похожи грамматические и разговорные упражнения.

Ключевые слова: упражнение, типы упражнений, грамматические упражнения, высшее образование, речевые навыки, узбекский язык, квалификация, компетентность, DTS, учебные задания, фонетические упражнения, методика, совершенствование, учебник, пособие, современные учебные задания, лексические упражнения, упражнения на понимание прочитанного.

Abstract: The article describes the effective use of types of exercises when teaching the Uzbek language in the higher education system, the skills and qualifications established in the Uzbek language in the requirements of the technical direction, as well as training tasks for their formation, and suggestions-considerations. Exercises are also described, classified, and new textbooks and manuals contain recommendations and samples of what grammar and conversational exercises are like.

Key words: exercise, types of exercises, grammar exercises, higher education, speech skills, Uzbek language, qualification, competence, DTS, training tasks, phonetic exercises, methodology, improvement, textbook, manual, modern training tasks, lexical exercises, exercises for reading comprehension.

KIRISH. O‘zbek tilining o‘zbek tili va davlat tili sifatida o‘qitilishi bo‘yicha yanada keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bu sohada o‘quv topshiriqlaridan foydalanish masalasida muayyan oqsoqliklar bor, jumladan, o‘quv topshiriqlari mazmuni maxsus o‘rganishni talab qiladi. Jahon til o‘qitish metodikasida asosiy e‘tibor o‘quv topshiriqlarning sifatiga qaratiladi.

Metodist olim V. I. Shlyaxovning o‘quv adabiyotlarda nutqiy va leksik-grammatik materiallarni o‘zaro muvofiqlashtirish muammolari haqidagi quyidagi fikrlari fikrimizni asoslaydi: “O‘quv materiallarini tuzishdagi qiyinchiliklardan biri nutqiy va leksik-grammatik materiallarni o‘zaro muvofiqlashtirishdir. ...Agar mashg‘ulotlarda grammatika yetakchilik qilsa va grammatik tizim mantiqiy izchilikda o‘rganilsa, bunda talabalarning nutqiy ehtiyojlari va ushbu nutqiy ehtiyojlarni ta‘minlash uchun zarur bo‘ladigan til materiallari o‘rtasida uzilish paydo bo‘ladi¹”.

Jumladan, X.Asalov talabalar nutqini o‘stirishda savol-javobdan foydalanishni quyidagi tarzda izchil rivojlantirib borishni tavsiya etgan edi: rasmga qarab savol berish, biror buyumni tasvirlash yuzasidan o‘tkaziladigan dialoglar, o‘rganilgan matn yuzasidan o‘tkaziladigan dialog, o‘qituvchi tomonidan belgilangan mavzu yuzasidan o‘tkaziladigan dialog, instsenirovka tipidagi dialog va h. k.².

Zamonaviy o‘qitish metodikasi talabalarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qilar ekan, demak, o‘quv topshiriqlari ham zudlik bilan shu talabga moslashishi kerak. O‘zbek tilining o‘zbek tili va davlat tili, shuningdek, ikkinchi til sifatida o‘qitilishida o‘quv topshiriqlari namunaga qarab ishlab chiqilgan savol va topshiriqlardan foydalaniladi.

Shu o‘rinda savol nima o‘zi, degan savolga ham javob izlash, uni ilmiy-metodik tekshirib ko‘rish zarurati paydo bo‘ladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida savolga shunday ta‘rif va tavsif berilgan:

¹ Шляхов В.И. Речевой сценарий и обучение русской речи ситуативный и сценарный подходы // Живая методика (для преподавателей русского языка как иностранного). – Москва: Русский язык, 2005. – С. 23–24. *prepodavateley russkogo yazyka kak inostrannogo*). – Moskva: Russkiy yazyk, 2005. – S. 23–24.

Savol – [a. – so‘roq; iltimos] 1. Javob olish uchun aytiladigan gap, jumla; so‘roq. – [Vasila Nazarovna:] Sen mening savolimga javob ber, kim u? O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. – Juda yaxshi savol! – dedi Ibrohimov, – qani, bu savolga kim javob beradi? A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. Savol alomati – esk. So‘roq belgisi. Savol alomati hamma vaqt"mi" dan keyin qo‘yiladi desam, kuladi. A. Qahhor, Adabiyot muallimi. Yetti og‘ayni ham ko‘kda nogahon Savol alomati bo‘lib ko‘ringay. A. Oripov. 2. Imtixon biletida yozib qo‘yilgan, javob berish lozim bo‘lgan mavzular nomi yoki mashq, masala. Ikkinchi qatorga borib o‘tirganidan keyin mashinkada yozilgan savollarni o‘qidi: – 1. Joul - Lens qonuni. 2. Rezo‘zbekns. Uchinchi savol elektromagnit maydoni haqidagi masala edi. O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. 3. Yechilishi lozim bo‘lgan masala, muammo. Bugungi yig‘ilishimizda ikkita savolni hal qilishimiz lozim. Gazetadan.³

Muloqot davomida, odatda, savollarga to‘g‘ri javob bergani uchun talabalarga rag‘bat yoki noto‘g‘ri javob bergan taqdirda ularga dashnom beriladi. Darsda talabani savol berishga undash mumkinmi? Ko‘p hollarda bunga e‘tibor berilmaydi, imkoniyat yaratilmaydi. Talabalar tomonidan o‘qituvchiga savol berilsa, aksariyat holatda rag‘batlantirilmaydi.

Dunyo til o‘qitish tajribasida nutqiy ko‘nikmalar to‘rtta. *Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish* va *yo‘zish* ko‘nikmalari bo‘lib ularni shakllantirish bo‘yicha beriladigan savol va topshiriqlar baholashga juda qulay tarzda ishlab chiqilgan. Ta‘limda baholashning qulay, samarali yo‘lini ishlab chiqilsagina uning foydasi bo‘ladi. Bilim, ko‘nikma va malakani baholay olmadimi, demak, u topshiriq sifatsizdir. Shuning uchun ham savol va topshiriqlar ishlab chiqishda quyidagicha yondashish lozim:

1. O‘quv dasturlarida dars, mashg‘ulot mavzusini mantiqan to‘g‘ri qayd etish.

2. Ish rejalaridagi mavzularni ko‘zda tutilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantira olish imkoniyatini hisobga olib tanlash.

² Asalov X. Sakkiy yillik rus maktablarining 5–8-sinflarida ўzbek tili darslarida feʼli yʼrganih: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent: 1970.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. – Т.: ЎзМЭ, 2004. – 569 б..

3. Mavzuga doir o'quv topshiriqlarni foydalilik darajasi bo'yicha saralab olish.

4. Bugungi mavzuda, asosan, qanday o'quv topshirig'idan faol foydalanish mumkinligiga to'g'ri tashxis qo'yib olish.

5. Mashqlardan takrorlashni talab qiluvchi o'qish, yozish, gapirish ko'nikmalarini shakllantirishda foydalanish.

G'.Hamroyev "Savol ham o'quv topshirig'i hisoblanib, o'zbek tili ta'limida hali alohida tadqiq etilmagan. Uning o'zbek tili o'qitish metodikasida qanday ahamiyat kasb etishi, vazifasi, turlari, tasnifi, qo'llanilish o'rinlari va tarkibi o'rganilmagan. Mezonlari ishlab chiqilmagan. Metodik qo'llanmalarda, darsliklarda topshiriqlar bilan birga qo'llaniladi, ko'pincha, topshiriq bilan almashtiriladi, topshiriqning tarkibiga kiritib yuboriladi. Aslida, metodikada savolning o'z o'rnini va vazifasi bor. U topshiriqdan aniq farq qiladi. Ba'zan topshiriq bilan bir xil vazifalarni bajarishi mumkin, ammo bu bir narsa degani emas. Amaldagi darsliklarda ba'zan "Savol va topshiriqlar" rukni ostida faqat savollar beriladi. Bu – mazkur tushunchaning mazmun mohiyatini yondosh tushunchalarga nisbatan farqlab olish zarurligini ko'rsatadi. Savolning turlari tasnif qilinmaydi"⁴, deb ta'kidlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oliy o'quv yurtlarining texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini davlat tili sifati o'qitishda o'quv topshiriqlaridan unumli foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda mashqlarning o'rnini muhim. Ammo tafakkurni o'stirishda savol turlarini mavzuga mos ravishda tatbiq etish talabalarda nutq qo'nikma hamda malakalarni rivojlantirishga olib keladi. Albatta, oliy ta'limda ham o'quv topshiriqlarining

vazifasiga ko'ra turlarini jiddiy farqlash, o'z o'rnida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухитдинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш Пед. фан. док. ... дис. –Тошкент, 2011. –347 б.
2. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. – 576 с.
3. Розысков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс...док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. – 50 с
4. Ҳамроев Ғ.Ҳ. Машқларнинг кўникма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2021. -№4. – Б. 231-240.
5. Усмонова М., Азларов Э., Шарипов Ғ. Ўзбек тили (олий ўқув юрлари рус гуруҳлари учун қўлланма). –Тошкент: Ўқитувчи, 1991. –304 б.
6. Ҳамроев Ғ.Ҳ. Машқларнинг кўникма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2021. -№4. – Б. 231-240.
7. Чеснокова М.П. Методика преподавания русского языка как иностранного Второе издание, переработанное Утверждено в качестве учебного пособия редсоветом – Мади Москва Мади 2015. –С. 45.



⁴ Ҳамроев Ғ. Она тилидан ўқув топшириқлари тузиш методикаси. Монография. – Тошкент. Донишманд зиёси. 2021. 29-б. 29-б.